

O'ZBEK TILI DARSLIGIDA ANVAR OBIDJONNING "DAHSHATLI MESHPOLVON" ASARI 5-6-SINFLARDA O'QITILISH METODIKASI

M.Sayfullayeva

*Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili ta'limi yo'nalishi 3-bosqich talabasi E-mail: Sayfullayevmaxliyo@gmail.com
+998937512725*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada o'zga tilli guruhlarda o'zbek tili guruhlari uchun ta'lim jarayonida asarni o'qitishning o'ziga xos jihatlari bayon etilgan va o'qitishning metodik jihatlari ko'rsatilgan.*

Kalit so'zlar: *Oltiariq, tanti, qishloq, bola, ena, qushlar, ajdodlar, sahro, parandalar.*

Аннотация: *В данной статье описаны специфические аспекты преподавания в образовательном процессе для узбекских тии в иноязычных группах и указаны методические свойства преподавания.*

Ключевые слова: *Олтиарик, вздурный, село, ребенок, бабушка, птицы, предки, пустыня, птчие.*

Anvar Obidjonning "Dahshatli Meshpolvon" asari bu asar ta'limiy-tarbiyaviy asar bo'lib asosan 5-6-sinfdagi o'quvchilar uchun mo'ljallangan. Asarda Meshpolvon erka, tantiq, bo'lib ko'ringan deb o'ylaydi. Kitobni o'qigan kitobxon lekin Meshpolvon asarda o'z yurtini ota-onasini va yurtdoshlarini qo'tqarishni zimmasiga oladi. Asarda do'stlik, urf-odatlar ham keng yoritilgan. Anvar Obidjonning bu qissasi sarguzasht-doston yo'sinida yozilgan ushbu qissasi ozodlik haqida, chin hurriyat yo'lida yo'lga otlangan bolalar haqida so'z borgan.¹⁵ Yurtboshimiz tomonidan aytilgan mazkur so'zlari ham bunga yaqqol namunadir. Kimda-kim o'zbek tilining bor latofatini, jozibasi va ta'sir kuchini, cheksiz imkoniyatlarini his qilmoqchi bo'lsa, munis onalarimizning allalarini, ming yillik dostonlarimizni, o'lmas maqomlarimizni eshitsin, baxshi va hofizlarimizning sehrli qo'shiqlariga quloq tutsin. Ajdodlarimiz, ota-bobolarimiz aynan ona tilimiz orqali jahonga o'z so'zini aytib kelganlar. Shu tilda buyuk madaniyat namunalarini, ulkan ilmiy kashfiyotlar, badiiy durdonalar yaratganlar.¹⁶

Anvar Obidjonning Dahshatli Meshpolvon asarini biz o'quvchilarga uyga vazifa qilib bergandik. Bugungi dars o'qib qayta hikoyalash bo'ladi. Bu mavzuni biz 5-sinf o'quvchilari bilan rolli o'yini orqali tushuntiramiz ya'ni sahna teatri qilib. O'quvchilarga rollarini bo'lib beramiz va Meshpolvon, otasi, onasi, buvisi, oshiqbola va hamma qahramonlarning rollarini bo'lib beramiz keyin esa o'quvchilar rollarini o'zlashtirib oladi va xuddi asarda ta'riflanganidek sahna teatri uyushtiradi va taqdim etadi.

¹⁵ Ferlibrary.uz

¹⁶ Gazeta.uz

Analitik tahlil(dalillash,isobtlash) Analitik so'zi grek tilidan olingan bo'lib "analytikos" ya'ni "tahlil qilish" qobiliyatiga ega bo'lish yoki "elementlar yoki prinsiplarga bo'linish" degan ma'nolarni anglatadi. 6-sinflarga kitobdan parcha o'qib beramiz.

Olma yedim baqalog'idan

Gilos yedim chaqalog'idan

Anjir yedim yapalog'idan

Bog'bon buvaning shapalog'idan

O'quvchilar ajratib ko'rsatilgan so'zlarni tahlil qilib beradi.

Baqaloq – semizligidan eni buyiga tenglashib qolgan.

Chaqaloq – go'dak, yangi tug'ilgan bola.

Yapaloq – keng

Shapaloq – kaft, qo'l, mo'sht, qo'lning barmoqlardan to bilakgacha bo'lgan qismi.

Bu bilan o'quvchilarni so'z boyligi oshadi va ma'no mohiyatini anglaydi.

Meshpovon xachirga teskari o'tirib , bigizli o'qlovni qo'liga qo'ndirib eti dir-dir titrardi, yirtqichlarga zog'lanib qarab to'xtamasdan ilgarilab ketaverdi. U umrida ilk bor sodir bo'lish ehtimoli kutilayotgan katta jangga o'zini shaylab qozonqopqoq ushlagan qo'lning boshmoldog'ida qoringa qistirgilik daskalla tig'ini siypab-siypab qo'yardi. Kun tikkaga kelib, borliqni jizg'anak qilishga urinayotgan pallada echkemarlar salqin inlarida jon saqlash uchun tarqalishdi.

Xachir – uy hayvoni ot(biya) eshak(hangi)

Bigiz- nina uchli metall qurol, poyabzaldo'zlarning igna uchli quroli

Qozonqopqoq- ovqat pishiradigan idishni ustki qismini berkituvchi moslama

Boshmaldoq – qo'l yoki oyoq panjasidagi birinchi yo'g'on barmoq

Daskalla – o'tin yoki taxta bo'lagini bo'ladigan asbob

Tig' – qilich , xanjar, pichoq sovuq qurollar nomi

Echkemar – hayvon nomi

O'zga tillilarga o'zbek tilini turli interaktiv metodlar orqali o'qitish hozirgi kunda juda samarali buladi va o'quvchilarda tilga bo'lgan qiziqishni oshiradi.

Bu metodda o'quvchilar uzlari bilmagan yangi so'zlarni, parchalarni ma'nosini bilib oladi.

Demak o'quvchilarga adabiy o'qish mashg'ulotlarida turli metodlar orqali o'qitish yaxshi samara beradi. 5,6 qo'llagan metodlarimiz yaxshi natija beradi. Rolli o'yinlar orqali va analitik tahlil bergandik bu metodlarni o'quvchilarni so'z boyligi oshdi, fikrlash qobiliyati oshadi va o'z ustida ishlaydi va yangi so'z izohini anglaydi. Adabiy o'qish mashg'uloti shu tarzda tashkil etilsa bolaning kitobga asarga bo'lgan qiziqishi oshadi va bola shu kabi hikoyalarni o'qishga kirishadi.

ADABIYOTLAR:

- 1) Obidjon, Anvar “Meshpolvon jangga otlandi”. Qissa Toshkent. Yangi asr avlodi, 2014.B.216
 - 2) Turakulova O. “O‘quvchilarda mutolaa madaniyatini shakllantirishning tarixiy tamoyillari”.2019.B.15
 - 3) Turakulova O. “Adabiyot darslarida tekstual-analitik tahlil asosida o‘quvchilarda mutolaani rivojlantirish”.2023.B.147-155
- Internet saytlari
- 1.gazeta.uz
 - 2.ferlibrary.uz